



## Texnologiya ta'limida boshlang'ich sinf o'quvchilarini tabiatga munosabatini shakllantirish

Isroilova Osiyo Soxibovna

Farg'ona shahar 3-o'rta ta'lim maktabi boshlang'ich sinf o'qituvchisi

### Annotatsiya

Tabiat va tabiat boyliklari kishilik jamiyati yashayotgan, rivojlanayotgan ba'zi odamlarning moddiy va ma'naviy ehtiyojlarini qondiradigan manbaa. Inson tabiat va uning zahiralardan foydalanmay yashay olmaydi. Texnologiya ta'limi o'quvchilarni tabiat bilan munosabatini birlashtiradi.

**Kalit so'zlar:** ekologiya, tabiat, inson, fan, texnika, atmosfera, havo, gaz, yer, o'simliklar, suv, fizik, kimyoviy, biologik.

### To formulate the attitude of Primary School students towards nature in technology education

Israilova Osiyo Sohibovna

Primary school teacher in Fergana city 3rd secondary school

### Annotation

The wealth of nature and nature is the source of the material and spiritual needs of some people in which the personality society lives, develops. Man can not live without the use of nature and its reserves. Technology Education combines students' relationship with nature.

**Key words:** ecology, nature, Man, science, technique, atmosphere, air, gas, Earth, plants, water, physical, chemical, biological.

### Формирование у младших школьников отношения к природе в технологическом образовании

Исраилова Осие Сахибовна



Учитель начальных классов средней общеобразовательной школы № 3 города Ферганы

## Аннотация

Природа и природные богатства являются источником удовлетворения материальных и духовных потребностей определенных людей, в которых живет, развивается человеческое общество. Человек не может жить без использования природы и ее ресурсов. Технологическое образование объединяет отношение учащихся к природе.

**Ключевые слова:** экология, природа, человек, Наука, техника, атмосфера, воздух, газ, Земля, растения, вода, физическая, химическая, биологическая.

Hozirgi vaqtda inson fan va texnika taraqqiyoti tufayli tog'larni qo'porishga, daryolar o'zanlarini burib yuborishga, yangi sun'iy dengizlar yaratish, katta – katta cho'l – biyobonlarni gullab yashnayotgan vohalarga aylantirish bilan bir qatorda avvalgi ekinzorlar o'rnida cho'llarni qoldirmoqda. Ekologik ta'limning o'quvchilar o'rtasida kechiktirib bo'lmaydigan, uni asraydigan, ardoqlaydigan muammodir. Tabiat va inson orasidagi o'zaro munosabat qadim zamonlardan hozirgi kunga qadar barchani qiziqtirib kelayotgan muhim muammo hisoblanadi. Inson tabiatning ajralmas qismi bo'lib, u butun mehnat faoliyati davrida u yol yoki bu yo'l bilan tabiatga ta'sir etadi.

Inson bilan tabiat o'rtasidagi munosabatlar negizini mehnat jarayoni tashkil etadi. Mehnat tufayli insoniyat paydo bo'ldi, uning tarkib topishi va taraqqiyot qonunlari vujudga keldi. Inson tabiatning tarkibiy qismi sifatida o'z mehnat faoliyati jarayonida muhitga ta'sir etib, o'zi ham shu muhitga moslashadi. Mehnat jamiyatning asosiy hayotiy sharti bo'lib, u tabiatdan ajralmasdir. Mehnat tabiatni inson bilan biralshiruvchi asosiy vosita.

Chunki, inson hayot kechirishda barcha noz – ne'matlarni tabiatdan oladi. Mehnat qurollarini takomillashtirish, kishi mehnatini yengillashtiruvchi mashina, odamlarning jismoniy kuchini va harakat tezligini keskin pasaytirib yuboradi. Buning evaziga insonlarning ongli fikrlashi, tafakkuri va irodasi tezlikda taraqqiy etib boradi. Fan – texnika taraqqiy etishi natijasida insonlar oddiy tosh qurollardan ish faoliyatida hozirgi kunning yadro energiyasidan foydalanishdan tortib, kosmik kemalar, robotlashgan texnikaning



ishlatishga qodir bo'ldilar. Inson bilan tabiat o'rtasidagi " moddiy almashinuv" bir necha marta tezlashdi. Insonning tabiatga ta'siri natijasida atmosferada havo, gaz, yerda o'simliklar dunyosi va suvda fizik – kimyoviy va biologik o'zgarishlar ro'y bermoqda. Natijada keyingi 25 – 30 yil mobaynida atmosfera havosi, suv, tuproq tarkibi nihoyatda ifloslandi.

O'quvchilarga texnologiya darslarida bevosita tabiat to'g'risida, tabiat hodisalari, ekologik muammolar, Orol dengizining taqdiri to'g'risida garipib, tabiatga salbiy munosabatda bo'lish yomon oqibatlariga olib kelishi ekologiyasining buzilib ketishiga sabab bo'lishi lozimligi, insonlarga juda katta moddiy, ma'naviy, zarar keltirishi, inson sog'igi uchun zarar yetkazayotganligi haqida ma'lumotlar berib borish lozim, bu albatta tabiat uchun uni asrab-avaylashga xizmat qiladi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari o'quv yilining oxirida, ya'ni to'rtinchi sinfga o'tganlarida atrof –olam haqida to'liq ma'lumotga ega bo'ladilar. Ular olam jonli va jonsiz tabiatdan iboratligini, insonning tabiatga, jamiyatga munosabati haqidagi dastlabki bilimlarga ega bo'ladilar. Tabiatshunoslik orqali Yer va boshqa sayyoralar harakati, harorat, suv, havo va tabiat to'g'risidagi tasavvurlarida, olam yaxlit mavjudot ekanligini ko'z oldilaridan o'tkazadilar. Umuman olganda, nazariy bilimlarini ko'rganlari bilan taqqoslash, bir – biridan farqlash, uni amaliyotga qo'llash, mehnat qilish turlari, mehnat tarbiyasi asosida tejamkorlik va tadbirkorlikka munosabat, bu kimlarning mehnati evaziga bo'layotganligini, xulosalarini o'z tillarida so'zlab berishga o'rgatilishi lozim.

Ana shunday bevosita ma'lumot berishda aloqadorlik, uzviylik ta'minlanadi. Quyi sinfdan yuqori sinfga o'tganlarida o'quvchilarning ona Yerga, quvnoq tabiat manzaralariga, fanga, hayvonot va o'simliklar dunyosiga, ekologik xususiyatlariga qiziqish orqali ularni amaliyotda qo'llashlariga doir ko'nikma va malakalari shakllanib boradi. So'ngi yillarda ilmiy tadqiqot ishlarining natijasi, maktab tuzilishi, ta'lim mazmunini qayta qurish shunga olib keldiki, boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qishga, yozishga, nutqga, sanashga, mehnat tarbiyasi asosida tejamkorlikka va tadbirkorlikka jiddiy e'tibor qaratish lozimligi aniqlandi. Chunki boshlang'ich sinf o'quvchilarini olgan bilim, ko'nikma va malakalari yuqori sinflarga o'tganlarida muhim omil hisoblanadi.



Insoniyatga xos xususiyat shundaki, u ijtimoiy mehnati tufayli rivojlanish jarayonida tabiiy muhitga qaramlikdan asta – sekin ozod bo’lib boradi va tabiatga nisbatan o’z ta’sirini tobora kuchaytiradi, unga “hukmron” bo’ladi.

Boshlang’ich sinf o’quvchilarida yoshlikdan boshlab, ekologik tushunchalarni shakllantirib borish masalasi ta’lim tarbiyada mas’uliyatli ish hisoblanadi. Chunki, bola yoshlikdan ota – onasi, akasi, opasi va qarindosh – urug’larining mehnatini e’zozlashi, hurmat qilishi, udumlari, urf – odatlari, rasm – rusumlarini qadrlashi, ya’ni bahor bayramida bahoriy taomlar sumalak, halim haqida bilish, ko’chatlar o’tqazish, turli o’simliklar ekish, ularni parvarish qilish kabilarga katta e’tibor berib keladi. Bular yoshlikdan singdirib borilsa, umr bo’yi esidan chiqmaydi, tabiatga hurmat bilan qaraydi, tabiatni ko’z qorachig’iday asraydi, saqlaydi.

Xulosa o’rnida shuni aytish lozimki, inson mehnat bilan ulug’. Kishilik jamiyatining asl tarixi ham mehnatdan boshlangan. Mehnat tirikchilik manbayi. Nainki, hayot va turmushning qaysi qirrasiga nazar tashlamang, qadamingiz mehnat bilan qutlug’. Tarbiyani mehnatsiz tasavvur qilish qiyin. Tabiatni asrash har bir insonni burchi. Yosh avlodni yoshligidan tabiatga oshno qilib boorish tabiatimizni, vatanimizni gullab-yashnashiga zamin yaratadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar**

- 1.Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. (Barkamol avlod - O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. “Sharq” nashriyoti, T 1997-yil.
- 2.Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat - yengilmas kuch. - Toshkent, Ma’naviyat, 2008.
- 3.Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 yil, 488 bet.
- 4.Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.Toshkent, “O‘zbekiston”, 2016 yil, 56 bet.
- 5.Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash- yurt taraqqiyoti va xalq faravonligining garovi.Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 yil,48 bet.
- 7.Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy taxlil, qat’iy tartib intizom va shaxsiy javobgarlik- har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. Toshkent, “O‘zbekiston”, 2017 yil,
8. Mavlonova R.A, Sanaqulov X.R, Xodieva D.P “Mexnat va uni o‘qitish metodikasi” O‘quv qo‘llanma. 2007yil TDPU.
9. X.Sanaqulov, M.Xaydarov “Boshlang’ich sinflarda qog’ozdan amaliy ishlar” Uslubiy qo‘llanma 1996 yil. TDPU.



10. I.Mannopova, R.Mavlonova, N.Ibragimova, “Texnologiya” Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 1-sinfi uchun darslik, “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashryoti, Toshkent, 2017-yil
11. X.R,Sanaqulov, D.P.Xodiyeva, A.R Sanaqulova, “Texnologiya” Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 2-sinfi uchun darslik, “Sharq” nashryot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati”, Toshkent, 2018-yil
12. X.R,Sanaqulov, D.P.Xodiyeva, A.R Sanaqulova, “Texnologiya” Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 3-sinfi uchun darslik, “Sharq” nashryot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati”, Toshkent, 2018-yil
13. I.Mannopova, R.Mavlonova, N.Ibragimova, “Texnologiya” Umumiy o’rta ta’lim maktablarining 4-sinfi uchun darslik, “O’zbekiston milliy ensiklopediyasi”. Davlat ilmiy nashryoti, Toshkent, 2017-yil.

